

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA TA'SIRINI O'RGANISH MUAMMOSI

Abdullayeva Dinara

*Ilmiy rahbar: Anarkulova Zubayda
O'zDJTU, Ingliz tili fakulteti, 2215-guruh*

Annotatsiya: ushbu maqolada jadidchilik harakati va uning xalq adabiyotiga ta'siri o'rganish muammosi haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: jadid, jadidlar, jadidchilik, Turkiston, turkiy xalqlar, jadidizm,

Xorij jadidchiligi

“Jadid” atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim ||| hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo'lgan. Ushbu atamani Avstriyaga elchi qilib yuborilgan.

Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko'rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushintiradi. 1789-yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa “Fransiya nizomi jadidi” deya boshlandi. O'sha yillari “Nizomi jadid” tor ma'noda askariy tizimni yevroparashtirishni, keng ma'noda ilm-fanni rivojlantirishni va zamonaviylashtirishni ko'zda tutgan edi.

Jadid atamasi yana boshqalar tomonidan yangilik g'oyalarni ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo'llanib kelingan. Sekinlik bilan o'zgarishlar Turkiston o'lkalariga kirib kela boshlagan.

Bu yangiliklarni Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda “gazeta o'qitg'uvchilarni mullalar “jadidchi nomi bilan atar edilar.

Akmal Ikromov O'zLKSM MKning 1926-yil 13-may || Plenumdagi nutqida shunday degan: “Jadidizm ideologiyasi savdo burjuaziyasi ideologiyasidir. Uning bizga hech bir dahli yo'q. Negaki u oktyabrning bir tomonida, biz esa ikkinchi tomonida turamiz”. Bundan tashqari yana shu yilda Abdulla Qodiriy partiya- davlat arboblarni obro'sizlantirishda ayblanib qamoqqa olindi.

1938-1956-yillarda jadidchilik va uning vakillari avlodlari qalbidan tamom siqib chiqarilgan.

Turkiston jadidchiligi xorijda ham o'rganilmoqda. Masalan Nyu Orlean universiteti professori Lazzeri, Amerikali E. Olbert, nemis I. Baldauf, yapon X. Komatsu bu borada samarali ishlab kelishmoqda.

Turkiston jadidlari chor hukumari jamoadan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, xususan o'sib kelayotgan yoshlarni madaniy - ma'rifiy taraqqiy etish yo'lida juda ko'p izlanishlarni olib borgan. Shu tariqa Jadidlar ta'limoti vujudga kelgan.

Asosan bu ishga Mahmudxo'ja Behbudiy boshchilik qilgan. U ushbu ta'limotdagi bolalarga to'g'ri tarbiyalagan, yomon yo'llardan qaytargan, kerakli narsalarni uqtirgan. Sog'lom xalqni yetishtirish uchun harakat qilgan.

Jadid namoyondalari yoshlarga murojat qilib, ularni oldinga intilishga, bilimlarni egallashga va yuksak cho'qqilarga chiqishga undagan. Shu o'rinda jadidladning yoshlarga bo'lgan bir murojatiga nazar tashlasak: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, millat yo'lida xizmat etdingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas.... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz".

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, siyosiy qaramliklardan chiqish muammolari bilan shug'ullanishadi. Zamonaviy bilimlarga ega kadrlar bo'lishi kerakligini bildiradi. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni xoxlashgan, buning uchun yoshlarni Yevropaning eng mashhur o'quv joylarida o'qitish zarur deb, fikrlashgan. Bu haqida Mhmudxo'ja Behbudiy ham "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiyaga dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurnoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti " ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonda yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqaradi edi".

Shu tariqa inson doimo tarixdan ibrat olib, kelajakka tomon intilib yashashi lozim. Jadidlar ham shuni qayta-qayta har bir gazetalarida qayt etishgan.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T: Ma'naviyat, 2004.
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti masalalari. T: Universitet, 1998
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T: O'zbekiston. 1999. B. 385